УДК 821.512.133.09-31:17

ABDULLA QAHHORNING AXLOQIY-TA'LIMIY QARASHLARI

X.K. XAMRAKULOVA

Maqolada Abdulla Qahhorning axloqiy-ta'limiy qarashlari uning "Haq so'zning kuchi" asari va "Sinchalak" qissasi asosida yoritilgan. Bunda adibning jamiyat hayotiga oid muhim masalalar – onalik va bolalikni himoya qilish, paxtachilikning millat ayollari ustidagi zahmati va uning salbiy oqibatlari, millat taraqqiyotida ona tilining ahamiyati, insoniyat uchun zarur bo'lgan axloqiy sifatlar, ayni damda jamiyat inqiroziga sabab bo'ladigan omillarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *shaxs ma'naviyati, ijtimoiy illatlar, axloqiy-ta'limiy qarashlar, adabiy-tanqidiy fikrlash, publitsistik maqolalar, suhbatlar, yozuvchi pozitsiyasi.*

В статье обсуждается этические взгляды Абдуллы Каххара на примере произведения «Сила правдивого слова» и повести «Птичка - невеличка». Особое внимание уделяется на основные проблемы общества с точки зрения писателя, на проблему защиты материнства и детства, непомерную нагрузку хлопководства на женщин и ее негативные последствия, значение родного языка в национальном развитии, на кажущиеся мелкими, но ведущие к кризису общества бытовые факторы; рассматриваются также моральные аспекты образовательных, литературных и дидактических взглядов.

Ключевые слова: *духовность индивида, социальный порок, моральные и образовательные взгляды, литературно-критические мысли, публицистические статьи, беседы, писательская позиция.*

Uzluksiz ta'lim tizimida ijodkor ma'naviy merosining ahamiyati katta. Badiiy asar o'quvchiga estetik zavq berish bilan birga didaktik tarbiya vazifasini ham bajaradi. Ijodkor ma'naviy merosini anglashda uning adabiy-estetik, axloqiy-ta'limiy qarashlarini o'rganish alohida ahamiyat ega. Negaki, ijodkor dunyoqarashi asarlariga singib borganidek, uning alohida shaxs qiyofasini ham ochishga yordam beradi. Bu xususiyat o'zbek adabiyotida qalam tebratgan barcha ijodkorlar uchun xos. Ammo ular orasida XX o'zbek adabiyotining peshqadam vakili Abdulla Qahhorning alohida o'rni bor. Yozuvchining ko'plab publitsistik asarlarida, ayniqsa, "Yoshlar bilan suhbat" [1], 5 jildlik asarlariga kirgan "Haq so'zning kuchi" kitobi (bu asar tarkibidagi ayrim maqolalar avval "Yoshlar bilan suhbat" asariga kiritilgan edi)da va boshqa ko'plab badiiy asarlarida adibning axloqiy-ta'limiy, ayni vaqtda adabiy-estetik qarashlari ham berilganki, buni alohida mavzu qilib o'rganish adabiy ta'limda o'zining samarasini beradi. Sababi adabiyot va uni o'qitish kitobxon va o'quvchi qalbini ezgulikka hamohang qilish vazifasini bajaradi. Mana shu tuyg'uni o'quvchilarga singdira olishlik o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Badiiy asar hayotning shunchaki tasviri emas, ijodkor ong prizmasidan o'tkazgan badiiy aksidir. Unda asar muallifining dunyoqarashi ham asar voqeligiga singdirib yuboriladi. Bu esa asar voqealariga shunchaki nazar tashlashni emas, muallif ongida pishib yetilgan falsafani ham uqish imkoniyatini beradi. Har qanday asar zamirida inson va uning taqdiri misolida kitobxonga ibrat olarlik xulosalar jam bo'lganini bilish mumkin.

Abdulla Qahhorning axloqiy-ta'limiy qarashlari ostida jamiyatimizning turli mavzulari, muammolari o'z aksini topgan. Uning "Haq so'zning kuchi" asariga bir qancha maqolalari jamlangan bo'lib, ular ichida biz mavzu qilib tanlaganimiz masalalarga oid qarashlar alohida o'rin egallaydi. "Paxtakorning har bir yutug'i qimirlagan jonni quvontiradi" maqolasida jamiyatning og'riqli nuqtalari qalamga olingan, ulardan biri o'z davri uchun dolzarb bo'lgan paxta terish mashinalarining ommaviy paxta dalalariga jalb qilinmasligi, borlari ham paxta sifatiga zarar yetkazayotgani, natijada hosilni yig'ib olishda ayollar va bolalar mehnatidan foydalanilayotgani haqidagi ma'lumotlar 1960-yillarda jaranglagani Abdulla Qahhorning jasorati edi. Shu o'rinda "ayol kishining bo'ynidagi falon ming kilogramm yukni "menga ort" deb yelkasini tutib turgan mashina hammaning ko'ziga yaxshi ko'rinmasligi uning sifatsizligini belgilasa, ayol kishining paxtadan ham boshqa tashvishlari ko'pligi uning paxta mehnatining tagida ezilib ketayotganligi turli misollar bilan izohlanadi. Ushbu maqolada yozuvchi qo'rqoqlik, qoloqlik, lanjlik va lanj odamlarning jamiyat taraqqiyotiga yetkazayotgan zararlari xususida ham to'xtalib o'tadi. Bu sifatlarning rahbarlar orasida uchrashi chinakamiga jamiyat fojiasidir. Paxtaning davlat siyosatiga ko'tarilishi oqibatida ayollar mehnatining qadrlanmay borayotgani, ularning oiladagi o'rni tobora yo'qolib borayotgani haqida yozuvchi "Sinchalak" qissasida ham ogohlantiradi. "Lanj odam faqat hozir paydo bo'lgani, faqat mashinani (paxta terish mashinasi nazarda tutilayotibdi – X.X.) ko'rib do'ng'illayotgani yo'q. Bular azaldan bor, azaldan har bir yangilikni, har bir yangi tadbirni ko'rsa, do'ng'illab kelgan" [2. Б. 134]. Onalar va bolalar muammosi ham birinchilardan bo'lib Abdulla Qahhor tomonidan tilga olingan edi:

“Ayol kishining boshida paxtadan ham boshqa tashvish ko‘p: tug‘adi, kechalari uyqusini harom qilib bolaga qaraydi, o‘stiradi... Ba’zi raislar kolxoz yaslisini maqtab, “bizning yaslimiz ikkinchi ona” deyishadi. To‘g‘ri shunaqa yaslilar ko‘p, lekin har qalay bolagina “ikkinchi ona”ning bag‘ridan ko‘ra birinchi onaning etagida ko‘proq yayraydi. Xotin kishi kir yuvadi, non yopadi, uyga qaraydi, sigir sog‘adi...” [2. Б. 134].

Abdulla Qahhor “Oila va muhabbat” maqolasida oilaning darz ketishiga sabab bo‘lgan uchta omilni ko‘rsatadi. Ulardan biri orzu havas ortida katta to‘y qilish va yigitning katta qarzga botishi bo‘lsa, ikkinchisi, qaynona-kelin munosabatidagi nomuvofiqlik. Afsuski, har ikki illat jamiyatimizda haligacha mavjud. Uchinchisi (yozuvchi buni kamroq uchraydigan deb ko‘rsatadi), “mushakday chiroyli, chaqmoqday ko‘zni qamashtiradigan, lekin bir lahzali, o‘tkinchi muhabbatnamo tuyg‘u asosiga qurilganidir”. “Muhabbat va oila masalasida xato qo‘yilgan qadam, sudning hukmiday, hech qachon va hech kim tuzatolmaydigan xato bo‘ladi. Sudning yanglish hukmi bilan turmada o‘tgan vaqt, yanglish qurilgan oilada g‘urbat bilan kechgan umr hech qachon qaytmaydi” [2. Б. 145] degan fikrlari hukm bo‘lib yangraydi.

Rahbar xodimlarning orasida qo‘l ostidagi odamlarning moddiy ahvolini yuqori tashkilotlardan yashiradigan, bu haqda ularga noto‘g‘ri ma’lumot beradigan, majlislarda “farovon turmush”, “madaniy to‘q turmush” haqida lof uradigan kimsalarni yozuvchi “ko‘zbo‘yamachi otlig‘ qabih kimsalar” deb ataydi. Bunday ko‘zbo‘yamachilar davlat bilan xalqning orasiga parda tortadilar. Bunday ko‘zbo‘yamachilar orasida radio va televideniye muxbirlari ham borki, ular xo‘jako‘rsinga material tayyorlaydi va namoyish qiladi. Shu tariqa Abdulla Qahhor mutasaddilarni ayovsiz tanqid ostiga oladi.

Abdulla Qahhor uchun oila muqaddas dargoh. “Oilaviy baxtda hikmat ko‘p”, – deb yozadi adib. O‘zining hayotini sarhisob qilsak bunga amin bo‘lamiz.

Bola qalbiga ezgulik urug‘i u hali ona qornida ekanligidayoq sochilishini ulamolarimiz ko‘p bora ta’kidlaganlar. Xususan, farzandga ona qornidaligidayoq Qur‘on oyatlarining eshittirilishi, ba’zan onaning bola bilan suhbatlashishi ham bolaning kelajakda yaxshi inson bo‘lib yetishishiga sabab bo‘luvchi omillar sifatida qaraladi. Ayniqsa, bolaning esini taniganidan boshlab unga kichik she’rlar, ertaklarning aytilishi bilan birinchidan, bola o‘zi anglamagani holda adabiyotga hamohang bo‘lib ulg‘ayadi, ikkinchidan qalbida yaxshilik tuyg‘usi rivojlanib boradi. Shu ma’noda ustoz munaqqid, el sevgan yozuvchi Abdulla Qahhor bolalar tarbiyasiga alohida e’tibor berib o‘tgan. U 1946-yilda yozilgan “Bolalar adabiyoti to‘g‘risida” maqolasida: “Kattalar uchun yozilgan kitobda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish mumkin, lekin bolalar uchun yozilgan kitobda ketgan xatoni tuzatib bo‘lmaydi, bu xatodan bolani ogohlantirilsa, xato uning zehniga chuqurroq o‘rnashadi”, deb yozadi. Shuningdek, “Bolalar uchun kitob yozadigan kishi g‘oyat usta san‘atkor, katta tajribali pedagog, tilning zarshunosi bo‘lmog‘i kerak” [2. Б. 80] deb bolalar yozuvchisi zimmasidagi mas‘uliyat nihoyatda katta ekanligini ta‘kidlaydi. Bolalar adabiyoti darajasining past ekanligi haqida yozuvchi kuyunib gapirib, uning bir qancha sabablarini keltiradi. Avvalo, bolalar adabiyoti soyuzning (Yozuvchilar uyushmasining), adabiy jamoatchilikning nazaridan chetda ekanligi, ikkinchidan, bolalar uchun yozadigan yozuvchilarning umumiy saviyasi pastligidan bolalar adabiyoti kattalar adabiyoti darajasida o‘smaganligini aytib o‘tadiki, bu qaysidir ma’noda yozuvchining bashoratiga o‘xshaydi. 1946-yilda aytilgan gaplar hozirgi kun uchun ham ayni muhim masalalar sirasida turibdi. “Bolalar yozuvchilarining oldiga qattiq talablar qo‘ymaganimiz uchun ko‘pi “kosib” bo‘lib qolyapti. Bulardan birmunchasi bolalar uchun yozish qanchalik mas’uliyatli ekanini, bu mas’uliyatni yelkasiga olgan odam qanchalik bilimli, qanchalik hunarmand bo‘lishi kerak ekanini yaxshi bilmaydi, tushunmaydi” [2. Б. 80], deb yozadi. Bu bolalar adabiyoti vakillari uchun ham yo‘riqnoma ekanligini unutmaslik zarur, ayni damda bolaga nimani qanday o‘qitish haqida pedagoglar uchun ham o‘ziga xos saboqdir.

“Gap aruzda emas” maqolasida Abdulla Qahhorning adabiy-nazariy qarashlari bilan bir qatorda axloqiy-ta’limiy qarashlari ham berilgan. Xususan, aruz vaznini niqob qilib ijod qilayotganlar va ularning asarini qo‘shiq qilib sahnaga olib chiqayotgan san’atkorlar adibning tanqidiga duchor bo‘lishadi. Ayniqsa, Abdulla Qahhor “Bu kungacha aruz vaznida yozilgan she’rlarning juda ko‘pi muhabbat haqida. Lekin bularning hammasi deyarli erkak jonivorning urg‘ochi jonivorni yo‘qlab chiqargan tovushidan farq qilmaydi. Bu she’rlarda insonga xos olijanob tuyg‘udan asar ham topolmaysiz” [2. Б. 72], – deb kuyunib yozsa, ayrim aruzda yozilgan she’rlarni bosib bo‘lmasligini, ular ko‘pincha artist va aktrisalarning repertuarlaridan joy olib, omma orasiga kirib borayotganidan xavotirini yashirmaydi. “Bu narsalarni bosish ayb ekanini shu xildagi shoirlarning o‘zlari ham bilishadi. Bu narsalarni ko‘pincha zotan, iste’dodi yo‘q, tomoshabinni san’ati bilan qoyil qilolmaydigan artist va artistkalar repertuar qilishadi. Ba’zan o‘zlari zakaz qilishadi, zakaz qilishganda ham “qichiqroq bo‘lsin” deyishadi. Keyin oilaviy o‘tirishlarda ham aytib bo‘lmaydigan “qichiq” she’rlar sahnaga chiqadi, o‘z qadrini bilmagan, izzat nafsini biron bezorining qiyqirig‘iga alishtiradigan bu sho‘rlik “san’atkor” shoirdan juda mamnun bo‘ladi, uni eng zo‘r shoir deb biladi. Bu xildagi qabih narsalarning – “islovot adabiyoti”ning tarqalishiga ba’zan “melodist-kompozitor” deb atalgan xaridorlar ham sabab bo‘ladi” [2. Б. 74]. Hozirgi kunda saviyasiz qo‘shiqlarku urchib ketgani mayli, behayo filmlarni ham ekranga chiqarayotgan mutasaddilar uchun Abdulla Qahhorday tanqidchi juda zarurga o‘xshaydi. Abdulla Qahhor bunday siyqasi chiqqan so‘zlarga o‘ralgan qofiyali so‘zlarni tahlil qilar ekan, “qani haqiqiy muhabbat, olijanob tuyg‘uning tarkibi bo‘lgan o‘zaro

mehr-oqibat, har qanday o‘tga bardosh beradigan sadoqat, sof qalb, samimiyat, fidokorlik, tenglik” deb yozadi. Uning o‘zi ham insoniylikni ana shu mezonlar asosida o‘lchagan. Buni adibning Kibriyo Qahhorova bilan kechgan chorak asrlik hayot yo‘li isbotlaydi.

Abdulla Qahhor shijoatli va jasoratli adib sifatida axloqiy-ta’limiy masalalarda ham o‘ziga xos talablar qo‘ygan munaqqiddir. Uning bir qator maqolalari, nutqlari, ma’ruzalarida mazkur masalaga urg‘u bergani ham adibning jamiyat taqdiriga befarq bo‘lmagan inson ekanligini ko‘rsatadi.

Abdulla Qahhorning “Qanday yozish yaramaydi?”, “Haq so‘zning kuchi”, “Uyat”, “Paxtakorning har bir yutug‘i qimirlagan jonni quvontiradi”, “Mushtum” to‘g‘risida”, “Ilhom to‘la ijod uchun, “Muhabbat va oila”, “Rus tilini ona tilimiz deyishimiz uchun avval o‘z tilimizni bilishimiz kerak” kabi o‘nlab maqolalarida axloqiy-ta’limiy masalalar xususida bahs yuritiladi. Uning ta’limiy masalalardagi maqolalarida adabiyot va uning ravnaqi xususida ham fikrlari talaygina. Xususan, bu xildagi masalalar doirasiga yaxshi asar va kitobxonlik, yozuvchilik va ijod kabi muammolar ham kiritilganki, bu adibning adabiy-estetik qarashlari axloqiy ta’limiy qarashlari bilan uzviy bog‘lanib ketganiligini anglatadi.

Yozuvchi nazarida uyat odobning ulug‘ posbonidir. “Uyat insonga xos tuyg‘udir. Hayvon uyat paydo qilolmagani uchun insonga yaqinlasholmaydi, lekin inson uyatini yo‘qotib hayvonga yaqinlashib qolishi mumkin” [2. Б. 236]. Abdulla Qahhorning uyat haqidagi falsafasi shu fikrlar bilan boshlanadi. Bir donishmand uyatni “vijdonning sirtqi ko‘rinishi” deb atagan ekan. Yozuvchining fikricha, “uyatsizlik bilan beadablik, beadablik bilan axloqsizlik jinoyatkorlik orasida qalin devor yo‘q, bularning bari vijdonsizlikning turli bosqichidir. Modomiki, shundoq ekan, uyatni jamiyatimizni balo-qazodan saqlaydigan buyuk posbonidir” [2. Б. 237]. Abdulla Qahhor to‘g‘ri ta’kidlaganidek, yov qal’ani qo‘lga olmoqchi bo‘lsa, hujumni posbonni bosishdan boshlaydi. Posbonni qo‘lga olish qal’aga raxna solish demakdir. Demak, uyatni yo‘qotish insoniylikni yo‘qotish bilan barobardir. Mana shu fikrlar agar dars jarayonida o‘quvchi ongiga singdirib borilsa, o‘qituvchi pedagogikaga xos birlamchi vazifasini ado qilgan bo‘ladi. Adabiy ta’limda o‘qituvchi Abdulla Qahhor hikmatlarini darsning kirish o‘rinlarida, qahramonga munosabat bildirish jarayonida, asarni hayot bilan bog‘lovchi o‘rinlarda foydalansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, yozuvchi fikrida davom etib: “Biz odob uchun kurash olib borar ekanmiz, bu yo‘lda ko‘radigan choralarimiz, joriy qiladigan tadbirlarimiz birinchi navbatda ulug‘ posbonimiz bo‘lmish uyatni dushman hamlasidan mudofaa qilishga qaratilishi zarur”, – deb yozadi. Abdulla Qahhor odobsizlikning taraqqiy etib boradigan joyini jinoyat deb belgilaydi. Jinoyatning zamirida barbod etilgan salomatlik, nomus, nohaq to‘kilgan hovuch-hovuch ko‘z yoshi yotadi. Abdulla Qahhor “Uyat” maqolasini quyidagi zalvarli xulosa bilan yakunlaydi: “Uyat” eng shafqatsiz qonundan ham kuchliroq, qudratliroqdir. Qonun faqat ko‘zi tushganida, shubha paydo qilganidagina jinoyatchining qo‘lini ushlaydi, yo‘lini to‘sadi. Uyat esa hamisha odobsiz, axloqsiz jinoyatchining tepasida turib nojo‘ya ish qilish uchun qo‘l ko‘targani qo‘ymaydi. Har qanday qonunga chap berish mumkin, lekin uyatga chap berib bo‘lmaydi, chunki qonun odamdan tashqarida, uyat esa odamning ko‘ksida bo‘ladi! [2. Б. 239]

Uyat haqidagi mulohazalar barchaga, xususan, bola kelajagiga mas’ul shaxslar – ota-ona va o‘qituvchiga ko‘proq daxl qiladi. Negaki, o‘zida uyat tuyg‘usini his qilmagan inson hech bir yo‘l bilan bolaga ijobiy ta’sir o‘tkaza olmaydi.

Abdulla Qahhor yosh ijodkorlarimiz ijodini sinchiklab kuzatar ekan, asarning shakl va mazmuni, mavzu va g‘oyasi pishiq bo‘lishi bilan birga so‘z qo‘llash mahoratiga jiddiy e‘tibor qaratgan. “Hamma laqmaliklar orasidagi eng yomon laqmalik, shubhasiz, adabiy laqmalikdir”, – degan asosli xulosasi ham ana shu kuzatuvlar asosida paydo bo‘lgan.

Yozuvchining nazarida kitob qaysi janrda yozilmasin, o‘qishli bo‘lishi kerak. Kitobning o‘qishli bo‘lishi muallifning kitobxonga aytadigan to‘la mag‘izli va juda zarur fikri bo‘lishi zarur.

Abdulla Qahhor “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarflash kerak emas”, deb ta‘kidlaganda bu fikrning kuchini o‘zi ham yaxshi anglagan, ayni vaqtda bu quyma fikr salaflariga ham tegishli ekanini ziyrak o‘quvchi tez anglaydi. Zero, yillar o‘tishi bilan sahnadan tushib qolgan ko‘plab asarlar xususida adib oldindan bashorat qilganday bo‘ladi.

Abdulla Oripov bir o‘rinda: Bisyor bo‘lsa gar so‘z ham beqadr, Takror aytilganda rangsizdir kalom”, – deb yozgan edi. Abdulla Qahhor ko‘p o‘rinda “adabiy laqmalik”, “adabiy nodonlik” haqida so‘z yuritgan. Yozuvchi so‘zni o‘rinli qo‘llash haqidagi fikrlari bilan bilan adabiy asarni himoya qilgan bo‘lsa, adabiyotni qo‘riqlashda yozuvchining o‘rni masalasiga ham alohida e’tibor qaratgan. “Adabiyotimiz katta adabiyot, – deb yozadi adib 1967-yil o‘zining 60 yillik yubileyi paytida yozgan “Yozuvchilik burchim” maqolasida, – katta adabiyotga talab ham katta bo‘ladi... Yozuvchining vazifasi yaxshi asarlar yozish, xalq dilining tarjimoni bo‘lish bilangina cheklanmaydi, uning vazifasiga adabiyotni har qanday balo-qazodan qo‘riqlash, adabiyotning sergak, jasur posboni bo‘lish ham kiradi” [2. Б. 134]. Adib aytmoqchi sergaklik va jasurlik avvalo shaxsning o‘zida mavjud bo‘lishi lozim. Abdulla Qahhor tili va dili bir bo‘lgan shaxsi butun inson edi. Uning 60 yillik yubileyi tantanasida so‘zlangan nutqini hamon eslab yurishadi. Shunda adib jasorat bilan “Men partiyaning yer tepib, chest beradigan soldati emas, ongli a’zosiman” degan gapi uchun ko‘p uqubatlarga duchor bo‘lgani sir emas. Abdulla Qahhorning vijdoni, xalqi, adabiyoti oldidagi jasorati Fitrat, Abdulla Qodiriy yoki Cho‘lponnikidan kam emasdi.

Abdulla Qahhor ijodida axloq masalasining yuqori pog‘onada turganligi ijodkor ma’naviy olamining xalq ma’naviyati sarchashmalaridan, milliy qadriyatlarimizdan, asrlar qa’ridan kelayotgan an’analarimizdan oziqlangani bilan belgilanadi.

“Har bir kishi o‘z mahallasining sha’niga dog‘ tushiradigan biror ishga qo‘l uradigan bo‘lsa, avvalo, qo‘ni-qo‘shnilari, qolaversa, butun mahalla ko‘z oldiga keladi. Qo‘ni-qo‘shniga, hatto butun mahallaga ham chap berish mumkindir. Lekin butun shaharga chap berish mumkin emas” [2. Б. 177].

Abdulla Qahhor to‘y marosimlariga alohida to‘xtalib o‘tadi. To‘yning chiqimi kam bo‘lishi manfaatli ekanligini ayta turib, ichkilikning ofat ekanligini ta’kidlaydi. Ichkilikni to‘ydagi bid’at deb baholaydi. Abdulla Qahhor ta’biricha, ichkilikning uchta vazifasi bor.

1. Ichkilik to‘yni ikkiga bo‘ladi.
2. Ichkilik bo‘lgan to‘yda “oshga tushgan pashshalar” bo‘ladi.
3. To‘yda ichkilik propaganda qilinadi.

Undan ham yomoni bolalarning ko‘z o‘ngida ichkilik ichish ayb bo‘lmay qoladi. Yozuvchi shu o‘rinda o‘g‘ri mol o‘g‘irlasa, ichkilik jon o‘g‘irlaydi, deya fikr bildiradi.

Shu o‘rinda Abdulla Qahhorning axloqiy-ta’limiy qarashlari borasida ham muhim fikrlarni qayd qilib o‘tish zarur.

1. Men o‘z respublikamni sevaman, o‘zbekcha sevaman.
2. O‘tmish kishining xotirasida tinadi.
3. Nima uchun ko‘cha harakatini buzayotgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi.
4. O‘z qadrini bilgan kishi xohlamagan ashulasini pul bersangiz ham eshitmaydi.
5. Yozuvchini hech qachon hech kim ko‘tarmaydi. Yaxshi yozuvchini yaxshi asarlari ko‘taradi, yaxshi yozuvchi ko‘tarilib ketganini hatto o‘zi bilmay qoladi.
6. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi – meva tugmaydi.
7. Ilhomning o‘zi hech qachon kelmaydi. Ilhomni yozuvchining o‘zi qidirib borishi, topishi kerak. Ilhomning makoni xalqning dilida – majburiyat emas, zaruriyat, xohishga aylangan mehnatning shavkati, baxtiyor odamning qahqahasida, jabrdiydaning ko‘z yoshida, oshiq va ma’shuqlarning ko‘zlari va so‘zlarida, odamda mehr va g‘azab uyg‘otadigan hodisa va voqealarning mag‘zida...
8. Yozuvchining umri yil bilan o‘lchanmaydi, ijodiy faoliyatining samarasi bilan o‘lchanadi.
9. Yozuvchining xalqqa aytadigan gapi naqadar muhim, naqadar katta, naqadar zarur bo‘lsa, buni kitobxon qalbiga olib kiradigan obraz shu qadar kuchli bo‘lishi kerak.

Yozuvchi ijodini baholaganda uni o‘tkir dramaturg, mohir hikoyanavis debgina emas, balki jamiyat hayotidagi muammolarni sinchkovlik bilan kuzatadigan, ularning yechimini taqdim qila oladigan munaqqid sifatida ham qaray bilish lozim.

Abdulla Qahhorning axloqiy-ta’limiy qarashlari publitsistikasida emas, adabiy asarlarida ham davom ettirilgan. Ya’ni bu qarashlar adibning deyarli har bir asariga xosdir. Bu o‘rinda yozuvchining “Sinchalak” qissasiga to‘xtalish joiz.

Asar 1958-yilda yozilgan. Konstantin Simonov tarjimasida rus tiliga tarjima qilingan. Shundan so‘ng sobiq Ittifoqning bir necha respublikalarida nashr qilindi. Fransuz, nemis, bolgar tillariga o‘girildi. Abdulla Qahhor uy-muzeyida yozuvchi nomiga kelgan ko‘plab maktublar saqlanadi. Qissaning ko‘p tillarda nashr qilinishi, asar yuzasidan adibga ko‘plab maktublarning kelishi uning jamoatchilik tarafidan yaxshi kutib olinganini ko‘rsatadi.

“Sinchalak”ning Tataristondagi nashri xususida Y.Shamsuddinovdan kelgan maktub Abdulla Qahhor uy-muzeyida saqlanadi. Unda jumladan quyidagi fikrlar yozilgan: “Bizning tilimiz o‘zbek tili bilan hamohang. Tarjima sizga ma’qul bo‘lishini xohlar edim. Qozonda kitobingizni sevib o‘qishyapti” [“Abdulla Qahhor arxivi katalogi”dan].

Yana bir xat sobiq GDRdan “Kultur und Forshtrit” nashriyoti direktori Koshutdan kelgan. 1965-yil 5-yanvarda jo‘natilgan maktubda shunday deyiladi: “Hurmatli o‘rtoq Qahhor! Sharafiddinovdan bildikki, siz “Sekretar Saida”ning mualliflik nusxasini olmabsiz. Roman bir necha oy oldin nashr qilindi. Biz hozirgi o‘zbek adabiyotining qiziqarli kitobini nemis kitobxonlariga tanishtirganimizdan xursandmiz” [3. Б. 159].

“Elliginchi yillarning boshlarida men “Og‘riq tishlar”ni yozishga tayyorlik ko‘rib yurib, alomat qizlar, alomat xotinlar bilan uchrashdim, ular bilan suhbatda bo‘ldim. Bular menga quvonch, muhabbat uyg‘otishdi, ya’ni muvozanatim buzildi. Men o‘zimdagi bu tuyg‘ularni boshqalarda uyg‘otishga yengib bo‘lmas xohish sezdim. Buning natijasi bo‘lib “Sinchalak” maydonga keldi” [4. Б. 256]. “Sinchalak” qissasini yozishdan avval yozuvchi Usmon Yusupovning topshirig‘i bilan Mirzacho‘lga boradi, uch oy davomida xalq ichida bo‘ladi. Ana shu yerda xalq hayotining ichida yurib qissaga material to‘playdi.

“Sinchalak” qissasining o‘z vaqtida dovruq qozonishi yozuvchining hayotning o‘tkir masalalari, kitobxon ko‘nglidagi, til uchida turgan gaplarini o‘quvchiga yetkaza olganligidir. Qissada qarashlari, ijtimoiy sharoitlari, yoshi, jinsi har xil bo‘lgan obrazlar – Qalandarov va Saidaning o‘zaro munosabatlari orqali turmushning haqqoniy manzaralari tasvirlanadi. Asar juda o‘qishli, hatto Saidaga havas qilib “Men sevgan qahramon” mavzusida insholar yozilgani ham sir emas. Abdulla Qahhor personajlar chizgisida xolislikni saqlay olgan. Ularning barcha jihatlari ro‘y-rost aks etgan. Shunga qaramay keyingi yillarda qissaning zamonasozlik ruhida yozilgani, asar tom ma’noda sovet hukumati siyosatiga xizmat qilgani haqidagi fikrlar yuzaga keldiki, bu bir tomondan, sho‘ro davri tanqidchiligining hissasi bo‘ldi. Abdulla Qahhor ijodini o‘rgangan olim U.Normatov yillar davomida asarning e’tibor qilinmagan jihatlariga diqqat qaratadi: “Yana bir gap. Asarda muallif har bob bilan jamoatchi ayol Tojixonni himoya qilishga, taqvodor Hamidullaning esa uni jamoat ishlaridan qayirib farishtadek uy bekasi

qilishga urinishlarini piching-kinoyalar bilan qoralashga urinmasin, oqibat-natija-obyektiv haqiqat kutilgandan o‘zgacha bo‘lib chiqadi. Xo‘sh, jamoatchilik yo‘lini tanlagan Tojixon pirovardida nimalarga erishdi? Taqvodor, mutaassib bo‘lsa-da, turmush o‘rtog‘iga chin dildan vafodor, beozor, halol, saranjom-sarishta erni tashlab, ikki farzandni tirik yetim qilib, “Guliston-bo‘ston”, “kichkina qasr”, “xazina-muzey” deyishga loyiq xonadonni tark etib, kolxoz bergan uyga ko‘chib o‘tadi; uning jamoatchi bo‘lib erishgan bor bisoti – bayramlarda, katta yig‘inlarda, o‘zaro tekshirishlarga borganda yaraydigan, siqqanicha ko‘krakka taqib, qolganini ro‘molchaga tugib yuradigan orden-u medallar... Shu bisot haqida gap ketganda muallif ham beixtiyor personajlarga qo‘shilib kulgu-kesatiqlardan o‘zini tiya olmaydi. Paradoksni qarangki, o‘z sha’ni, qolaversa, o‘zgalar sha’ni, qadri uchun faol kurash yo‘lini tutgan shaxslar harakati ichki ziddiyatlari tufayli sekin-asta jozibasini yo‘qotib absurdga aylana boshlaydi” [5. Б. 38].

Asarni hozirgi kun nigohi bilan qayta idrok etilsa, yozuvchining matn osti fikrlari yana-da ochiqroq namoyon bo‘ladi.

Qissada bir necha ayol personajlar berilgan. Ularning fe’l-atvori, yashash tarziga nazar tashlansa, roman yozilgan o‘tgan asrning 50-yillari manzaralari aniq ko‘rinadi.

Arslonbek Qalandarov jamiyat yetishtirgan qahramon. Garchi uning murakkab qiyofasi tanqidda turli fikrlarni yuzaga keltirgan bo‘lsa ham, yozuvchi o‘sha davrdagi rahbar xodimlar yashash tarzi misolida davrning illatlar girdobida qolganiga ishora qilib o‘tadi. Konfliktsizlik nazariyasi hukm surayotgan, zamondosh ayol qiyofasi ko‘klarga ko‘tarilayotgan bir paytda jamiyat ichki tanazzulga botib borayotganining tasviri, avvalo ayol, personajlar ifodasida bo‘y ko‘rsatgan. Qissadagi birorta ayol o‘zida to‘la baxt hissini tuygan emas. Saida o‘tmishidan alamzadalik tuygan, otasi onasini so‘yib qo‘ygan (onasi eriga isyon ko‘targani, unga bo‘ysunmaganida yuzaga kelgan bu fojia. Aslida shu vaziyatni paydo qilgan sharoitning o‘zi ham fojiali), ammo o‘sha ota bilan bir hovlida yashashga majbur. Ayni vaqtda otaning bor-yo‘qligi bilinmaydi, faqat Saida har safar unga boqqanda o‘tmishi gavdalanadi. Kifoyatxon o‘zidan besh yosh kichik eri bilan yashaydi, eri esa kimningdir yugurdagi, kimgadir mute, Tojixon vaqtinchalik shon-shuhrat ortidan haqiqiy baxtini yo‘qotayotgan ayol, Hurinisoda ayollik latofati ko‘rinmaydi, aksincha unda eri – Arslonbek Qalandarovdan ustun bo‘lishga urinish bor. Buni amalda ko‘rsatishdan hayo qilmaydi, Mehri birovning olti bolasi ustiga ikkinchi xotin bo‘lib tegib olishdan uyalmaganidek, avvalgi hayoti ham toza emas. Asardagi biror ayol personaj taqdiri kishiga tabassum bag‘ishlamaydi. Ular tasvirida nurli jihatlar yaraq etib ko‘rinmaydi.

Kifoyatxon tasvirida yozuvchi satirik kulgiga urg‘u beradi. Kifoyatxondan Abdulla Qahhor “Sarob” romani personaji Soraxonga yaqin belgilar topadi. Adib ijodida xunuk ayollar portreti bo‘rtiq holda tasvirlangan. “Saida raisning bo‘lajak kelini Manzuraxonni ko‘z oldiga keltirish uchun Kifoyatxonga zimdan razm soldi. Uning jag‘i keng, ko‘k tomirlari bo‘rtib turgan ikki chakkasi ichkariga botgan, peshanasi kavushning betiga, yo‘q, umuman, yuzi mardona kavushga o‘xshar edi” [5. Б. 27]. Soraxonning ham “ko‘k tomirlari ko‘rinib turgan qo‘llari ikki yonida emas, qornining ustida qimirlaydi” [4. Б.89]. Umuman xunuk ayol tasvirida Qahhor qalami ancha beshafqat.

“Xunuk xotinlarning xunukligini aksari boshqa fazilatlari ko‘mib ketadi”, – degan o‘yda Saida unga bir qancha savollar berdi. Biroq Kifoyatxon bu savollarning birontasiga ham javob bermadi, boshini quyi solib, iljayib, erka o‘sgan qiz boladay erkalanib – qiyshanglab, ko‘z qiri bilan Hurinisoga qarardi, nihoyat bir nimani bahona qilib, pastga tushib ketdi” [5. Б. 27]. Xuddi shunga o‘xshash fikrlar Soraxonni xotinlikka tanlayotgan Saidiydan ham o‘tgan edi. Unda ham Soraxon Saidiyga qiyshanglash bilan qo‘l uzatgan edi. Saidiy ham har safar Soraxonni ko‘z oldiga keltirganda “qo‘lidagi choynagi” bilan namoyon bo‘lardi. Abdulla Qahhor har ikki personaj tasvirida kishining tashqi portreti ichki olamiga mos keladigan obrazlar yaratgan. Bunday hol “O‘tkan kunlar”da Homid va Jannat xola obrazlarida ham uchraydi. Ko‘rinadiki, portret qahramon ichki psixologizmini ochishda asosiy unsur sifatida muhim o‘ringa ega. Ayniqsa, uni Qahhor tasvirlasa.

Kifoyatxon Hurinisoning aytishicha, Qalandarovdan ham uch-to‘rt yosh katta. Uning iljayishi, erka o‘sgan qiz boladay erkalanishi tasviriyoq uning ma’naviy olamiga tortilgan chiziq edi. Kifoyatxonning Qalandarov oldida “yosh qizday uyala-uyala zinadan chiqib” kelishi, “qilpillagannamo” bir harakat bilan poygakka o‘tirishi, “o‘ynab turgan ko‘zlari bir lahzada xontaxtadagi turli zakuska, shirinlik, ko‘kat qo‘yilgan tarelka va likopchalarni, vino to‘ldirilgan ryumkalarni, Eshonning oldida turgan shishalarni kezib” chiqishi; “yer ostidan Qalandarovning yuziga, Saidaning bilagidagi soatga, ko‘kragidagi to‘g‘nag‘ichga” qarashi tasviridan uning yengil tabiat ayol ekani ochiq ko‘zga tashlanadi. Qalandarov yaratgan muhit ham sog‘lom emas. Hurinisoning mehmon oldida ichmasligini “madaniyatsizlik” belgisi deb biladi va “qattiq xijolat” tortadi. Hatto “ryumkani olib xotinining qo‘liga” beradi. Shu tariqa “madaniyatli oila” vakilasini yaratadi. 50-yillarda yuqori doiradagi ayollar madaniyati tanazzulga yuz tuta borishi aslida 30-yillarda Munisxon (“Sarob”) obrazida uch bergan edi. Faqat uning fojiasida millatchilar qismatini berish maqsad qilib olinganini e’tiborga olsak, bir millat doirasidagi fojia turli ko‘rinishda ikki asarda davom ettirilganiga guvoh bo‘lamiz.

Kifoyatxonning eri Eshon unga har tomonlama munosib. Qalandarovning ta’riflashicha, Eshonning ikki aybi bor: xudo uni bo‘ydan va jussadan qisgan, “xotini bilan podruchka qilib kelayotganda orqasidan ko‘rgan kishi Eshonni Kifoyatxonga osib qo‘yibdi deydi” [5. Б. 28]. Xuddi shunga o‘xshash ta’rif Soraxonga ham

berilgan: “orqasidan ko‘rgan kishi uni og‘ir bir narsa olib ketayotgan gumon qiladi” [4. Б. 89].

Saida murakkab obraz. Garchi o‘sha davrning yetakchi obrazlari qatorida tursa ham adib uni insoniy nuqsonlardan holi bo‘lmagan murakkab qiyofasini bera olgan. Negadir Saida har bir hodisaning faqat yomon tomonlarini ko‘rishga moyil. Chunki oilaviy muhitda Saida chiroyli tarbiya olmagan. Ota-ona o‘rtasidagi munosabat Saidaga ta’sirini o‘tkazgani aniq. Hali “Bo‘ston” kolxoziga yetib bormay turib, (rasman kolxoz pravleniyesiga sekretar bo‘lmay) tuni bilan daftarining uch-to‘rt sahifasiga qilinadigan ishlarni belgilab qo‘yishi o‘z davri uchun mas’uliyatni his qilgan yosh kadr sifatida baholanar, ammo unda hammadan alohida turishga intilish, bir so‘z bilan aytganda xudbinlik sifatlari yetarli deyishimizga asos beradi. O‘z davrida “Sarob” romanining qahramoni Saidiy va Munisxonni (ularga salbiy obraz deb qaralgan paytlarda) xudbin obrazlar sifatida baholangan edi. Abdulla Qahhor o‘zining sevimli qahramoni Saidani ham ayni nuqson bilan tasvirlashi inson qaysi maqomda turmasin bu sifatdan begona emasligini ko‘rsatadi.

Qahhorshunos olim O.Sharafiddinov Saidaga “Saida zaifgina, mo‘rtgina, oddiy bir qiz”, “Saida to‘satdan hayot to‘lqinlarining o‘rtasiga tushib qoladi”, “Saida – yorqin adabiy tip”, “ish odami, faoliyat kishisi” [6. Б. 204–205] deb ta’rif beradi. Bu ta’riflarni rad qilmagan holda aytish lozimki, Saida unchalik ham zaif va mo‘rt emas, Arslonbek Qalandarovgacha u rayon partiya komitetida ishlab ko‘pni ko‘rgan, Nosirov bilan dadil suhbat quradigan qiz edi. Oiladagi fojiasi ham uni hayotda boshqalarga nisbatan tezroq ulg‘aytirgan. Keyin uning onasi ham ko‘p ham erkak kishiga bo‘ysunmaydigan ayol bo‘lgan. Axir erining ogohlantirishlariga qaramay xohishiga qarshi borgani uchun fojiali halok bo‘lgani yodda turish kerak. Xarakterda onaning sifatlari aks etadi-ku. Shuning uchun u Arslonbek Qalandarovga qarshi chiqa oladi. U tanlangan obraz. Bunda Abdulla Qahhor zaif obrazni katta personajga yo‘liqtirdi deb emas, katta odamning o‘ziga mos raqibni uchrashtirdi deyilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Bu o‘rinda Abdulla Qahhor masalaning bu jihatlariga e’tiborli bo‘lgan.

“Sinchalak” ijtimoiy-siyosiy qissa. Yozuvchi Saida Aliyeva va Arslonbek Qalandarov to‘qnashuvi misolida jamiyatni bezovta qilib turgan muammolarni qalamga oladi. Shulardan biri ayollarning paxta dalasidagi mashaqqati, tarbiya masalasi (“odam bolasi qayerda, qanday sharoitda tug‘ilayotibdi, qayerda va kimlarning qo‘lida tarbiya ko‘rayotibdi”) yana biri o‘qituvchi va o‘quvchi muammosi.

“Qalandarovning achchig‘i keldi.

– O‘qituvchi bo‘lib non yegandan keyin bolalarni o‘ziga rom qilsin, bosib olsin-da!

Saida kulgiga oldi.

– Qanaqa qilib? Masalan, sizning jiyaningizni o‘qituvchi qanaqa qilib rom qilishi, bosib olishi mumkin? Siz jiyaningiz oldida o‘qituvchini sensirasangiz, uning sha’niga har xil gap aytsangiz, kalaka qilsangiz, ish buyursangiz...” [3. Б. 80]. Anchayin tanish manzara. O‘qituvchilarning qimmatini tushirgan hollar, o‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi pardaning ko‘tarilishi oqibatida o‘qituvchining hech kim darajasiga tushirib qo‘yilgani ham afsuski rahbar ma’naviyatining noto‘kisligi oqibatida ro‘y berdi. Bu holni zamondoshlarimiz yaxshi bilishadi. Abdulla Qahhor o‘qituvchiga zug‘um o‘tkazilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi haqida 50-yillarda bong urgan edi. Bu masala yozuvchi maqolalarida ham tilga olingan. Yozuvchi muammolarning faqatgina hammomda aytilishiga e’tibor qaratar ekan, (asar personaji Umidaning hammomdagi gaplarini eslang) qayma’noda o‘zi yashab turgan zamonga hukm o‘qiydi.

Qissada yozuvchining o‘ziga xos o‘quvchini bee’tibor qoldirmaydigan quyma fikrlar bor:

1**.** Aflotunning qizi bo‘lsangiz ham gapni tonnalab oling-u, grammlab soting.

2. Meni itingiz yoniga bog‘lang, lekin rahbarlik qilmang! Toqatim yo‘q! Xotin kishi rahbarlik qilsa, kalavamning uchini yo‘qotib qo‘yaman!

3. Odamning yomoni bo‘lmaydi. Birov tosh, birov gul, o‘z joyida ikkovi ham yaxshi.

5. Igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqib o‘tirma.

6. Odamning chiqiti bo‘lmaydi.

7. Illatni chimchilab olib tashlash kerak emas, tagi bilan qo‘porish kerak.

8. Kishan oltin bo‘lsa ham har qalay kishan.

“Sinchalak” tagmatnli asar. Asarning aktual qatlami haqida tanqidchilikda talay fikrlar bildirilgan. Uning tub qatlamlarini kashf etish esa yozuvchi dilidagi fikrlarni anglash imkonini beradi.

Har bir davr yozuvchini qayta kashf etadi. Bizningcha, bugungi globallashib borayotgan bir vaqtda Abdulla Qahhor qarashlarini qayta nazardan o‘tkazish lozimdir.

Abdulla Qahhor asarlarini o‘qitish jarayonida uning axloqiy-ta’limiy qarashlarini singdirish maqsadga muvofiq. Zero, ijodkor asarlariga singdirilgan ma’noni uqishda yozuvchi axloqiy-ta’limiy qarashlarining ahamiyati beqiyos.

Adabiyotlar:

1. *Қаҳҳор А*. Ёшлар билан суҳбат. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – 160 б.

2. *Қаҳҳор А*. Ҳақ сўзнинг кучи. Асарлар: 5 жилдлик. 5-жилд: – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 272 б.

3. *Ҳамроқулова Х*. Абдулла Қаҳҳор ва хориж // Жаҳон адабиёти, 2005. – № 9. – Б. 159–162.

4. *Қаҳҳор А*. Синчалак. Асарлар: 5 жилдлик. 3-жилд: – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 368 б.
5. *Норматов У.* Қаҳҳорни англаш машаққати. – Тошкент: Университет, 2000. – 50 б.
6. *Шарафиддинов О*. Абдулла Қаҳҳор. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989. – 256 б.
7. *Норматов У*. Устоз ибрати. – Тошкент: Ўзбекицон Миллий кутубхонаси, 2007. – 125 б.
8. Содиқов С. Абдулла Қаҳҳор ижоди ва адабий танқид. – Тошкент: Университет, 1996. – 90 б.
9. *Шарафиддинов О*. Ижодни англаш бахти. –Тошкент: Шарқ, 2004. – 640 б.
10. *Қаҳҳорова К*. Чорак аср ҳамнафас. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 95 б.
11. *Қўшжонов М.* Абдулла Қаҳҳор маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 231 б.
12. *Ҳамроқулова Х*. Абдулла Қаҳҳорнинг адабий-эстетик қарашлари. –Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022. – 104 б.

ETHICAL-EDUCATIONAL VIEW OF ABDULLA KAHHAR

K.K. Khamrakulova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2022. 3 (63). 62-69.

Tashkent State University of Uzbek language and literature, Tashkent, 100100, str., Yusuf Xos Xojib, 103 (Uzbekistan). E-mail: interdep@navoiy-uni.uz

Keywords: spirituality of individual, social vices, moral and educational views, literary and critical thinking, clinical products, conversations, writer's position

Creative spiritual heritage plays an important role in the system of continuous education. The work of art not only gives aesthetic pleasure to the student, but also serves as a didactic education. Sometimes this task is assigned to the author's journalistic works. The study of the literary-aesthetic, moral-educational views of the artist are of special importance in understanding the spiritual heritage of the artist. After all, just as the creative worldview is absorbed in the works, it also helps to reveal the image of the individual. This feature is characteristic of all the writers who have written in Uzbek literature. However, Abdulla Qahhar, the leading figure in Uzbek literature of the 20th century, has a special place among them. In many of his works, including The Conversation with the Youth (1968, 2017), the five-volume book The Power of the Truth (some of the articles in this work were previously included in the Conversation with the Youth), and many other works of art. The author's moral-educational, as well as literary-aesthetic views are given, the study of which as a separate subject is effective in literary education. After all, literature and its teaching have the function of harmonizing the heart of the reader and the reader with goodness. One of the main tasks of a teacher is to instill this feeling in students. A work of art is not just a depiction of life, but an artistic reflection through the prism of the creative mind. In it, the author's worldview is also absorbed into the reality of the work. This gives an opportunity not only to look at the events of the work, but also to read the philosophy that has matured in the mind of the author. At the heart of any work is an example of man and his destiny that draws instructive conclusions for the reader.

Under Abdulla Qahhar's moral and educational views, various issues and problems of our society were reflected. His "The Power of the Truth" contains a number of articles, all of which focus on the issues we have chosen as our subject.

As a courageous writer, Abdulla Qahhar is a critic who has set his own standards in moral and educational matters. His emphasis on this issue in a number of articles, speeches and lectures shows that the writer is not indifferent to the fate of society.

Abdulla Qahhar's "How not to write?", "The power of the truth", "Shame", "Every achievement of a cotton grower makes a moving soul happy", "About Mushtum", "Inspiration for creativity", "Love and family", "Russian speak our mother tongue, in order to we must first know our own language". In his articles on educational issues, he discusses literature and its development. In particular, such issues include good works and issues such as reading, writing and creativity, which mean that the author's literary and aesthetic views are inextricably linked with his moral and educational views.

References:

1. Qahhor, A. (2017) *Yoshlar bilan suhbat* [Conversation with young people]**.** Ташкент: Akademnashr.
2. Qahhor, A. (1989) *Haq so‘zning kuchi* [The power of the word of truth]. In: Asarlar [Works]. In 5 volumes. 5-volumes. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’ati nashriyoti.
3. Hamroqulova, X. (2005). Abdulla Qahhor va xorij [Abdulla Kahhar and foreigners]. *Jahon adabiyoti*. No 9. Pp. 159-162.

4. Qahhor, A. (1989) *Sinchalak* [Sinchalak]. In: *Asarlar* [Works]. In 5 volumes. 3-volumes. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’ati nashriyoti.

5. Normatov, U. (2000) *Qahhorni anglash mashaqqati* [The difficulty of understanding of Abdulla Kahhar]. Tashkent: Universitet.

6. Sharafiddinov, O. (1989) *Abdulla Qahhor* [Abdullah Qahhar]. Tashkent: Yosh gvardiya.

7. Normatov, U. (2007) *Ustoz ibrati* [Teacher's example]. Tashkent: O‘zbekitson Milliy kutubxonasi.

8. Sodiqov, S. (1996) *Abdulla Qahhor ijodi va adabiy tanqid* [Abdulla Kahhor's work and literary criticism]. Tashkent: Universitet.

9. Sharafiddinov, O. (2004). *Ijodni anglash baxti* [Happiness to understand creativity]. Tashkent: Shark.

10. Qahhorova, K. (1987) *Chorak asr hamnafas* [A quarter of a century has together]. Tashkent: Yosh gvardiya.

11. Qo‘shjonov, M. (1988) *Abdulla Qahhor mahorati* [Abdullah Kahhar’s skill]. Tashkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.

12. Hamroqulova, X. (2022) Abdulla Qahhorning adabiy-estetik qarashlari [Literary-aesthetic views of Abdulla Kahhar]. Tashkent: BOOKMANY PRINT.

Muallif haqida ma’lumot:

XAMRAKULOVA Xurshida Kuvvatovna – filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti. E-mail: xaxurshida832@gmail.com